



MILLIY QADRIYATLARGA ASOSLANGAN KONSTITUTSIYAMIZ - YANGI O'ZBEKİSTONNING HUQUQİY POYDEVORI BO'LİB XİZMAT QILADI

Sh.A.Rahimov

A.R.To'rabyoyev

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti

S.Hashimova

Ilmiy rahbar: prof., DSc

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy an'nalarimiz va qadriyatlarimizga xos bo'lgan konstitusiyamizning "oila" bobiga va chet el konstitusiyalarida kam uchraydigan farzandlar va ota-onalar munosabatlari bir qator qonun hujjatlari va mulohazalar yordamida yoritib berilgan

Kalit so'zlar: xalqchil konstitutsiya, oila, nikoh, farzandlar, demokratik prinsplar

Qadim o'tmishdan ma'lumki, har qanday davlat tashkil etilishi va shakllanib ravnaq topishi yoki zavolga yuz tutishi, shuningdek, uning tarixda qanday iz qoldirishi kuchli tartib qoida va o'z o'rnida kuchli hukmdorga bog'liq bo'lib kelgan. Buni Aleksandr Makedonsky, Chingizzon, Amir Temur, Napaleon Bonopart kabi buyuk shaxslarning kuchli davlat boshqaruvi siyosatida namoyon bo'lgan. Bularning asosi sifatida esa davlatdagi qoidalarga xalqning ijobjiy tavsifi va to'laqonli amal qilishi misolida ko'rishimiz mumkin.

Qonun - qoida o'rnatalmas ekan, har qanday davlatda ham tartib-intizomni doimiy ushlab turishning iloji yo'q. Amerika Qo'shma Shtatlarida tuzilgan Konstitutsiya tarixda ilk Konstitutsiya bo'lib qoldi va u hozirgi kungacha o'zgarmasdan kelmoqda. Shundan so'ng o'nlab davlatlarda ham Konstitutsiya asosiy qonun sifatida qabul qilinishi boshlandi.

Hozirgi kundagi eng taraqqiy etgan Rossiya, Germaniya, Yaponiya va ko'plab davlatlarning misolida ham fuqorolar va davlat o'rtasidagi asosiy bo'g'in sifatida qonunlar va qoidalarni misol keltirishimiz mumkin.

Shu o'rinda ona yurtimiz O'zbekistonda ham qonun ustuvorligi va yurt tinchligini taminlash maqsadida mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab davlat qomusi sifatida konstitutsiyamizni tuzish uni xalq muhokamasiga qo'yishdek murakkab topshiriqni birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning hissasini, izlanishlarini hozirgi davr bilan solishtirsak bir inson uchun hayoti davridagi eng murakkab masala sifatida ko'rishimiz mumkin. Konstitutsiyani tayyorlash jarayonlarida, muhokamalarida Islom Karimov uning o'nlab moddalariga shaxsan ishlov bergan, 77 ta prinsipial o'zgartish va qo'shimchalar kiritgan. Masalan, Konstitutsiyaning muqaddimasi «xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda» degan so'zlar bilan to'ldirilgan. Komissiya rahbari sifatida Islom Karimov vijdon erkinligi masalasiga juda katta e'tibor berdi. Loyihada bu haqdagi «Har bir kishi vijdon - erkinligi huquqiga



egadir, har kim xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech bir dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga, diniy va ateistik e'tiqodga ega bo'lishi va bunday e'tiqodni tarqatish huquqiga egadir» degan jumlani Islom Abdug'aniyevich tuzatib, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega.

Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi», - deb ta'riflaydi. Albatta rivojlangan davlatlarning konstitutsion tuzumlari ham keng tahlil qilingan, o'rganilgan va tajribalar o'zlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Xorij tajribasi milliy qadriyat va an'analar bilan uyg'unlashib konstitutsiyamiz yakdil bir qonun sifatida shakllandi.

Buning amaliy natijasi o'laroq 1992-yil 8-dekabrdan mustaqil O'zbekistonimiz Konstitutsiyasining qabul qilinishi muhim tarixiy voqeа bo'ldi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek Konstitutsiyaning yaratilishi va hayotimizga tatbiq etilishida mustaqil O'zbekistonning birinchi prezidenti muhtaram Islom Abdug'aniyivich Karimovning xizmati beqiyos ekanini davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev alohida ta'kidlab o'tgan. Haqiqatdan ham, 90-yillardagi o'ta og'ir davrda asosiy qonunimiz loyihasini ishlab chiqishda Islom Abdug'aniyivich Karimovdek keng miqyosda, strategik fikrlaydigan, uzoqni ko'ra oladigan buyuk siyosiy arbobning bu ishga rahbarlik qilgani hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Asosiy qonunimizda umume'tirof etilgan demokratik prinsplar bilan birga, xalqimizning bebaho qadriyatlari va boy o'tmishimizning davlatchilik tajribasini ifodalash muhim edi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari aynan shu muammoning yechimi sifatida qabul qilishimiz mumkin: "Xalqimiz manfaati, uning ertangi taqdiriga daxldor bo'lgan har qanday qarorni qabul qilishda yetti o'Ichab, bir kesishimiz zarur".

Shu o'rinda konstitutsiyamizning boshqa davlat konstitutsiyalaridan asosiy farqi unda oila, nikoh, farzandlar va qadriyatlarni e'zozlashdek milliy qadriyatlarmizning unda qonun sifatida kiritilganligidir. XIV bob aynan "Oila" deb nomlanishi esa yaqqol isbot bo'lib xizmat qiladi. "Oila" bobining 64-moddasida "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar" ko'rinishida belgilangan va bu boshqa davlat konstitutsiyalarida uchramaydi.

Yangi asrimiz ko'plab yutuqlar, rivojlanish asri bo'libgina qolmay, avval bizning mentalitetimizga begona bo'lgan urf-odatlarning ko'r-ko'rona kirib kelganligini ham tan olmasdan ilojimiz yo'q. Nikoh va oilaning muqaddasligi qaysidur darajada o'z qadrini yo'qotib bormoqda. Buni o'tgan yillar davomida ajrimlar sonining ko'payganligi, ko'plab yangi oilalarning bir yilga bormasdan buzilib ketayotganligi, misol bo'lishi mumkin. Eng achinarlisi shundaki yetim farzandlarning ko'payayotganligini, mehribonlik uylari yo'q bo'lib ketishning o'rniga soninisng ortishi, odamni xavotirga solishi tabiiy, keksa va nuroniyalarimizning o'z uylariga sig'masligi, qariyalar uylarining ko'payishini qanday tushunish kerak? Yevropaning ko'plab davlatlarida ham bu masala jamiyatning og'riqli nuqtasi ekanini quyidagi faktlar orqali ko'rishimiz mumkin 2009-yili Rossiyadagi ba'zi siyosatchilar oila bo'yicha o'tkazgan





ilmiy tadqiqotlarning natijalarini e'lon qildilar. Mazkur natijalardan namunalar quyidagicha:

Rossiyada oila buzilishi 54,3% ni tashkil etadi.

Taymir avtonom viloyatida - 94%

Chukotka avtonom viloyatida - 83%

Koryak avtonom viloyatida - 80%

Buyuk Britaniyada oltita yangi qurilgan oilaga beshta ajrim to'g'ri kelar ekan. Ammo Rossiya Federatsiyasining musulmon diniga e'tiqod qiluvchi hududlarda esa bu ko'rsatgich nisbatan ancha pastliginin ko'rishimiz mumkin. Bizning dinimiz ham dunyoqarashimiz ham balkim Nikoh va Oila munosabatlarini Konstitutsiyadagi o'rnini belgilashda ancha yuqori o'rinda ekanligiga ham sababdir. Lekin kim kafolat bera oladiki, ommaviy tarzda kirib kelayotgan yevropaning har qanaqa urf-odatlarni bizni chetlab o'tadi deb.

Albatta, bunga bee'tibor bo'lмаган har qanday millatimiz vakili uchun Oilani qanday ekanligini yangilik emas, uning o'rni esa Konstitutsiyada qanday belgilanganligini bilish uchun esa shunchaki Konstitutsiyani XIV bobini o'qib chiqishsa, umumiylar tarzda tushunchaga ega bo'lislari aniq. Buning uchun esa faqatgina Konstitutsiya bayrami arafasida emas, har doim unga tabiiy ehtiyojni uyg'otish, har xil Konstitutsiyani targ'ib qiliuvchi vedioroliklar va teledasturlarni ko'paytirish, ommaviy axborot vositalarda esa uning qay darajada kundalik xayotimizga ma'lum va noma'lum bo'lgan jihatlarinini ochib beruvchi dasturilamallarni ko'paytirish juda yaxshi samara beradi albatta.

Konstitutsiyani darslik sifatida o'rganishda "Xalqchil Konstitutsiya" deb e'tirof berilishining ham aynan milliy rujni aks ettirganligi va bu ham o'z navbatida jamiyatimizdagi munosabatlarga samarali ta'sir ko'rsatishi haqida o'quvchilarga yetkazish zarur. Mamlakatimizning asosiy qomusida oilaning har bir a'zosiga e'tibor berilgan, ota-onalar farzandlar majburiyatları aniq qilib belgilab qo'yilgan. Bunga misol tariqasida Konstitutsianing "Oila" bobidagi moddalar barcha muammoli vaziyatlarga yechim sifatida qarash mumkin. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega". Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi" ushbu moddada barcha milliy urf-odatlarga urg'u berilib ta'kidlab o'tilganligini davlat avvalo oiladan, ostonadan boshlanishi va huquqiy munosabatlar ham avvalo oilani tartibga solish bilan boshlash kerakligi birinchi moddadayoq belgilab berildi.

Oilaning muqaddasligi har-birimizga yoshlikdan qon-qonimizga singdirib kelingan, Bu yuqoridagilarga asoslanib, Yevropaning rivojlangan davlatlarida ham konstitutsiya borligiga qaramay, davlatda oilaning o'rni qay darajada e'tibor berilar ekan? Kabi savol tug'ilishi tabiiy. Albatta fuqorolarning dunyoqarashi shunga imkon berayotgan ekan, davlatning unga ta'siri ham shu darajada bo'lishi kerakligi shundan misol qilish mumkin.





Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish mumkinki, talab taklifni keltirib chiqaradi. Qonunlar ham eng kerakli va talabchan sohalargagina kirib boradi. Yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan qatlamni qamrab olgan Konstitutsianing "OILA" bobining asosiy qismini yoritadigan bo'lsak 66-moddasida, bevosita farzandlarning ota-onalarga bo'lgan munosabatlari belgilab berilgan "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar". Yevropa va G'arb davlatlarida aksincha farzandlar voyaga yetib, o'zini kunini ko'rishni boshlagandan ota-onadan uzoqlashib ketadi. Bizning davlatimizda esa qachondir Yevropaning mashhur davlatlaridagi kabi reytinglarni ko'rishimiz qiyin, bunga sabab esa albatta Konstitutsianing o'z o'rnida tuzilganligi, tartibga solinganligidir desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir O'zbekiston fuqorosi Konstitutsiyani muqaddas bilib, tinchligimiz, farzandlarimiz quvonchi, keksalar e'zozi aslida shuning qamrovida paydo bo'lganligini chin dilimizdan his qilishimiz kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi asosida "Amalga oshirayotgan islohatlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizni asosiy omilidir" kitobi.
3. 2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон.

